

## **SARS-CoV-2 VA 2-TIP QANDLI DIABET BILAN KASALLANGAN BEMORLARNING IFN-a STATUSI**

*Obloqulov A.R., Sa'dulloyeva I.K., Aslonova M. R.*

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti O'zbekiston, Buxoro sh., A.Navoiy ko'chasi. 1 Tel: +998 (65) 223-00-50 e-mail: info@bsmi.uz

**Maqsad:** COVID-19 pandemiyasi fonida barcha mamlakatlarda aholi o'limi sonining ko'payishi qayd etishgan. Bunda bemorlarning alohida guruhlar ajratilgan bo'lib, ularda o'lim o'rtacha statistik ko'rsatkichidan sezilarli darajada oshgan. Shunday guruhlardan biriga, qandli diabet (QD) bilan kasallangan bemorlarni kiritiladi. Turli mamlakatlarda o'tkazilgan ko'plab tadqiqotlar QD bilan og'rigan bemorlarda COVID-19 infeksiyasi bilan zararlanishning yuqori xavfini, shuningdek kasallikning yanada og'ir kechishini va o'lim darajasi yuqori ekanligini namoyish etdi.

**Usullari:** Tadqiqotda Kovid-markaziga aylantirilgan Buxoro viloyat yuqumli kasalliklar shifoxonasida SARS-COV-2 pnevmoniyasi bilan kasalxonaga yotqizilgan 103 bemor jalb qilindi. 2-tip qandli diabet fonida SARS-COV-2 pnevmoniyasi bilan gospitalizatsiyalanganlarning barchasidan og'ir pnevmoniya bilan og'rigan bemorlar - 35 (1-guruh), o'rtacha og'irlik bilan - 33 (2-guruh) bemor tashkil qildi. Taqqoslash guruhi (3-guruh) QD bilan kasallanmagan SARS-CoV-2 pnevmoniyasi bo'lgan 35 patsientdan iborat bo'ldi. Nazorat guruhi mos yoshdagi 30 sog'lom odamdan iborat edi.

**Natijalar:** Qon zardobida aylanib yuruvchi interferonlar darajasining tahlili IFN-a sintezining 1- guruh bemorlarida 2,3 martaga pasayishini ( $r < 0,001$ ) 2-guruh bemorlarida 2,0 martaga ( $r < 0,001$ ), 3- guruh bemorlarida 1,38 baravarga ( $r < 0,05$ ) kamayganini ko'rsatdi. Binobarin, IFN $\alpha$  - darajasini tahlil qilishning olingan natijalari SARS-CoV-2 pnevmoniya bilan kasallangan bemorlarda, 2-tip QD ning hamroh kasallik sifatida mavjudligidan qat'i nazar, virusga qarshi faollikning pasayishini ko'rsatdi. Olingan ma'lumotlar darajasida 2-tip QD fonida SARS-CoV-2 pnevmoniyasi bo'lgan bemorlarda  $r < 0,001$  darajasida statistik ahamiyatga ega va taqqoslash guruhidagi bemorlarda esa ishonchlilik darajasi  $r < 0,05$  ni tashkil qiladi.

**Xulosa:** Shunday qilib, 2-tip QD fonida koronavirus infeksiyasi bo'lgan bemorlarda interferon a statusini o'rganish kasallik oqibatining multifaktor omillarga bog'liqligini ko'rsatdi: QD va boshqa a'zolarning surunkali noinfeksion kasalliklarining mavjudligi; Antidiabetik preparatlarni qo'llash muddati; Glyukokortikosteroidlar bilan davolash.

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Золотова, Наталья Николаевна. "Оценка параметров адекватности восстановительного лечения патологического вывиха бедра у детей раннего возраста." 48ЧАСТЬ II (2020).
2. Джалилов, П. С., Золотова, Н. Н., Расулов, Х. А., & Каримкулов, Ш. У. (2006, December). Организация медицинской помощи на догоспитальном этапе. In Современные аспекты СМЭ и криминалистики: Тез. докл. Респ. науч.-практ. конф (Vol. 21, pp. 27-29).